



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

759-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yirik bozorlarda jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-noyabrda 791-son qarori ijrosi haqida”gi 637-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 29-noyabrda PF–27-son Farmoni hamda “Madaniyat, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi ob‘ektlarida jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-aprelda PQ–155-son qaroriga muvofiq respublikadagi yirik bozorlarda tashrif buyuradigan fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash va jamoat tartibini saqlash hamda shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-noyabrda 791-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 637-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 637-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-noyabrda 791-son qarori bilan: quyidagilarni nazarda tutuvchi Yirik bozorlarda jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

yirik bozorlarda jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish tartibi;

yirik bozorlarni videokuzatuv kameralari, tashvish-chaqiruv signalizatsiyasi, yong‘in signalizatsiyasi, tashvish tugmalari va xavf-xatardan ovozli xabar beruvchi uskunalar kabi xavfsizlikni ta‘minlash texnik vositalari bilan jihozlash talablari;

jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash bo‘linmalarining (idoraviy xizmatlar) xodimlarining (harbiy xizmatchilar) huquq va majburiyatlari;

jamoat tartibini saqlash va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ob‘ekt ma‘muriyati, sotuvchi va ob‘ektga tashrif buyuruvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yirik bozorlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kirishi etiborga olinsin.

3. Ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov), Milliy gvardiya (B.Abdullayev), Favqulodda vaziyatlar (D.Mamajonov) bo‘limlari, “Mingbuloq dehqon bozori” MCHJ (K.Qosimov)lar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-noyabrda 791-son qarori talablari asosida ish tashkil etsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i D.Karimov, Milliy gvardiya bo‘limi boshlig‘i B.Abdullayev, Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i D.Mamajonovlar zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**